

SURXONDARYO VILOYATI SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH

Buriyev Ubaydulla Bozor o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedra o'qituvchisi

E-mail: buriyevubaydulla197@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati sanoat korxonalari raqobatbardoshligi statistik ko'rsatkichlar tizimi asosida baholandi. Tadqiqotda 2014-2024-yillardagi rasmiy ma'lumotlar asosida sanoat ishlab chiqarishi dinamikasi, viloyatning respublika sanoatidagi ulushi, tumanlar kesimidagi tarkibiy farqlar va tarmoqlar ixtisoslashuvi tahlil qilindi. Mutlaq o'sish, o'rtacha yillik o'sish sur'ati va hududiy ulush ko'rsatkichlari qo'llanildi. Natijalar sanoat ishlab chiqarishi barqaror o'sganini, ayrim tumanlarda sanoat faolligi kuchayganini va to'qimachilik hamda qurilish materiallari yetakchi yo'nalish bo'lib qolganini ko'rsatdi. Yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va hududiy investitsiya faolligini kuchaytirish zarurligi asoslandi. Taklif etilgan yondashuv hududiy sanoat raqobatbardoshligini muntazam monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini statistik asoslash uchun amaliy metodik asos yaratdi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonalari, raqobatbardoshlik, Surxondaryo viloyati, statistik ko'rsatkichlar, hududiy ulush, diversifikatsiya, investitsiya, sanoat rivojlanishi.

Аннотация

В статье была оценена конкурентоспособность промышленных предприятий Сурхандарьинской области на основе системы статистических показателей. По официальным данным за 2014-2024 годы были проанализированы динамика промышленного производства, доля региона в промышленности республики, территориальные различия и отраслевая специализация. Использовались показатели абсолютного прироста, среднегодовых темпов роста и региональной доли. Результаты показали устойчивый рост промышленного производства, повышение активности отдельных районов и сохранение ведущей роли текстильной промышленности и производства строительных материалов. Была обоснована необходимость развития отраслей с высокой добавленной стоимостью, диверсификации промышленности и усиления инвестиционной активности. Предложенный подход создал методическую основу для регулярного мониторинга региональной конкурентоспособности, сопоставления территорий и статистического обоснования управленческих решений на практике.

Ключевые слова: промышленные предприятия, конкурентоспособность, Сурхандарьинская область, статистические показатели, региональная доля, диверсификация, инвестиции, промышленное развитие.

Abstract

This article assessed the competitiveness of industrial enterprises in Surkhandarya Region using a system of statistical indicators. Official data for 2014-2024 were used to analyze industrial output dynamics, the region's share in national industry, territorial differences, and sectoral specialization. Absolute growth, average annual growth rates, and regional share indicators were applied. The results showed sustained industrial expansion, stronger district activity, and the leading role of textiles and construction materials. The study substantiated the need to develop higher value-added industries, diversify the industrial structure, and strengthen regional investment activity. The proposed approach provided a methodological basis for regular competitiveness monitoring and evidence-based managerial decisions.

Keywords: industrial enterprises, competitiveness, Surkhandarya Region, statistical indicators, regional share, diversification, investment, industrial development.

KIRISH

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda sanoat tarmog'ining o'rni beqiyos ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-sonli farmonida belgilangan maqsadlar qatorida sanoat tarmoqlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish vazifasi alohida o'rin egallaydi [1]. Ushbu vazifani bajarilishi, birinchi navbatda, hududlar kesimida sanoat rivojlanishini real holatini aniqlash va undagi tafovutlarni ilmiy asosda baholashni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining kuchayishi korxonalarni resurslardan samarali foydalanishga, xarajatlarni optimallashtirishga hamda innovatsion faoliyatni kengaytirishga undaydi. Bunday sharoitda hudud sanoatining umumrespublika iqtisodiyotidagi o'rnini, uning dinamikasi va tarkibiy xususiyatlarini statistik jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanadi. Surxondaryo viloyati qulay geografik joylashuvi va boy resurs salohiyatiga ega bo'lishiga qaramasdan, uning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi respublika miqyosida nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda. Mazkur holat viloyat sanoatining rivojlanish tendensiyalarini, shuningdek tuman kesimidagi tarkibiy tafovutlarni chuqur o'rganishni zarur qilib qo'yadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Surxondaryo viloyati sanoat korxonalarini 2014-2024 yillardagi rivojlanish dinamikasini statistik ko'rsatkichlar tizimi asosida baholash, viloyatning respublika sanoatidagi ulushini aniqlash hamda tuman kesimidagi tarkibiy farqlarni yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy sanoat rivojlanishini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda korxona raqobatbardoshligi va milliy iqtisodiy o'sish nazariyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. M. Porterning fundamental ishlarida raqobat ustunligi ko'p bosqichli va ko'p qirrali pog'ona sifatida talqin qilinib, u resurslardan samarali foydalanish va strategik joylashuvga bog'liqligi asoslab berilgan [2]. Resursga asoslangan yondashuv

tarafdorlari raqobat ustunligini moddiy va nomoddiy resurslarni uzoq muddatli natijaga xizmat qildiruvchi tarzda birlashtirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadilar [3]. Ushbu yondashuv hudud sanoatini tahlil qilishda ham qo‘llanilishi mumkin, chunki hududning sanoat salohiyati aynan resurslardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faollik va raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqotlarda tashkilotlarning barqaror raqobat ustunligiga faqat innovatsiyalarni muntazam yangilash orqali erishishi mumkinligi ta’kidlanadi [4; 5]. Hududiy miqyosda bu, o‘z navbatida, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish zaruratini bildiradi. Hududlar kesimida ixtisoslashuv darajasini o‘lchashda iqtisodiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan vosita - B. Balassa tomonidan ishlab chiqilgan oshkor qiyosiy ustunlik (Revealed Comparative Advantage) yondashuvidir [6; 7]. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hudud sanoatining rivojlanish darajasini baholashda faqat mutlaq hajm ko‘rsatkichlari emas, balki nisbiy ulush va tarkibiy tahlil usullaridan kompleks foydalanish zarur.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2014-2024 yillarga oid rasmiy ma’lumotlari tashkil etadi [8; 9]. Viloyat sanoatining respublika sanoatidagi o‘rnini aniqlash uchun hudud ulushi ko‘rsatkichidan foydalanildi:

$$U_{i,t} = \frac{Q_{i,t}}{Q_{Res,i,t}} * 100\% \quad (1)$$

Bu yerda.

$U_{i,t}$ - i-hududning t-yildagi ulushi (%); $Q_{i,t}$ - hududning tegishli ko‘rsatkichi; $Q_{Res,i,t}$ - respublika bo‘yicha umumiy ko‘rsatkich.

Ko‘rsatkichni ma’lum davr mobaynidagi mutlaq o‘zgarishini aniqlash uchun absolyut o‘sish (kamayish) formulasidan foydalanildi [10]:

$$\Delta y = y_t - y_{t-1} \quad (2)$$

Uzoq muddatli tendensiyaning baholash maqsadida o‘rtacha yillik o‘sish sur‘ati ko‘rsatkichi qo‘llanildi:

$$\bar{T} = \left(\frac{y_n}{y_0} \right)^{\frac{1}{n}} \times 100 \quad (3)$$

Bu yerda.

y_0 -davrning boshlang‘ich yilidagi ko‘rsatkich, y_n - davrning oxirgi yilidagi ko‘rsatkich, n-yillar soni. Mazkur ko‘rsatkichlar majmuasi hudud sanoatini nafaqat mutlaq hajm dinamikasini, balki uning umumiy respublika tizimidagi nisbiy o‘rnini ham xolis baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2014-2024 yillar statistik ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tahlil Surxondaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining mutlaq ko‘rsatkichda

barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini tasdiqladi (1-jadval). Viloyat sanoat ishlab chiqarishi 2014-yildagi 1615,3 mlrd so'mdan 2024-yilga kelib 13819,8 mlrd so'mga yetib, tahlil davomida 8,6 baravardan ortiq o'sdi. Shu bilan birga, (1) formula asosida hisoblangan viloyatning respublika sanoatidagi ulushi butun davr mobaynida barqaror o'sish ko'rsata olmadi. 2014-yildagi 1,92 foizdan 2019-2022 yillarda 1,3 foiz atrofiga tushib, 2024-yilga kelib 1,57 foizga tikladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Surxondaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi hamda viloyat ulushining dinamikasi (2014-2024 yillar)¹.

Yillar	O'zbekiston Respublikasi (mlrd. so'm)	Surxondaryo viloyati (mlrd. so'm)	Ulush, foizda
2014	84,011.6	1,615.3	1.92
2015	97,598.2	1,910.7	1.96
2016	111,869.4	2,200.7	1.97
2017	148,816	2,356.4	1.58
2018	235,340.7	3,234.7	1.37
2019	322,535.8	4,231.3	1.31
2020	368,740.2	5,322.7	1.44
2021	456,056.1	6,675.3	1.46
2022	553,265	7,229.8	1.31
2023	658,991.7	8,848.6	1.34
2024	880,198.5	13,819.8	1.57

(2) va (3)-formulalar asosida hisoblangan o'rtacha yillik o'sish sur'ati ko'rsatkichlariga ko'ra, 2014-2024 yillarda Surxondaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi yiliga o'rtacha qariyb 24 foizga o'sgan. Bu ko'rsatkich respublikani ayrim boshqa hududlariga nisbatan pastroq bo'lib, viloyat sanoatining o'sish sur'ati jihatidan ham raqobat ustunligi cheklanganligini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishini tuman kesimidagi taqsimoti ham sezilarli notekislik bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi bir necha yirik sanoat markazlariga to'g'ri kelmoqda: Termiz shahri, Jarqo'rg'on, Denov, Sherobod va Sho'rchi tumanlari viloyat sanoat mahsulotlarining salmoqli qismini ta'minlaydi, ular asosan oziq-ovqat, qurilish materiallari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Shu bilan birga, Oltinsoy va Bandixon kabi tumanlarda sanoat ulushi izchil past darajada qolmoqda, bu esa mazkur hududlarda sanoat infratuzilmasining yetarli shakllanmaganligi va investitsiya faolligining pastligi bilan izohlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tuman kesimidagi ulush o'zgarishini yaqinroq kuzatish uchun 2014 va 2024-yillar bo'yicha taqqoslama keltirilgan (2-jadval). Ko'rinib turibdiki, an'anaviy yetakchilar - Jarqo'rg'on va Termiz shahri - o'z ulushining sezilarli qismini yo'qotgan (mos ravishda 9 va 3,5 foiz punktga), buning o'rniga Sherobod, Denov va yangi tashkil topgan Bandixon tumanlari o'z ulushini kengaytirgan.

2-jadval

Surxondaryo viloyati tumanlari (shaharlari) sanoat ishlab chiqarishdagi ulushining 2014 va 2024-yillar bo'yicha taqqoslamasi¹

Hudud	2014-yil ulushi, foizda	2024-yil ulushi, foizda	O'zgarishi, foizda
Termiz shahri	13.5	10.0	-3.5
Jarqo'rg'on	18.0	9.0	-9.0
Denov	12.4	9.2	-3.2
Sherobod	7.0	8.7	1.7
Sho'rchi	11.3	7.9	-3.4
Angor	5.0	4.6	-0.4
Sariosiyo	6.6	6.9	0.3
Bandixon	0.0	2.8	2.8
Oltinsoy	1.6	2.2	0.6

Viloyat sanoati tarkibiy tuzilmasida ham chuqur o'zgarishlar ro'y bergan (3-jadval). To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 2014-yildagi 35,7 foizdan 2024-yilda 44,1 foizga yetib, tarmoqning yetakchi o'rnini yanada mustahkamladi. Shu bilan bir vaqtda oziq-ovqat mahsulotlari ulushi deyarli ikki barobar (32,1 foizdan 16,1 foizgacha) qisqargan, koks va neftni qayta ishlash tarmog'i ulushi esa 11,6 foizdan 2,7 foizgacha pasaygan. Bunga mutanosib ravishda boshqa nometall mineral mahsulotlar (qurilish materiallari) va tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish tarmoqlari ulushi sezilarli oshgan, bu esa qurilish sohasi bilan bog'liq sanoat tarmoqlarining faollashganidan dalolat beradi.

3-jadval

Surxondaryo viloyati sanoati tarkibida yetakchi tarmoqlar ulushining o'zgarishi (2014-2024 yillar, foizda)².

Tarmoq	2014-yil, foizda	2024-yil, foizda
To'qimachilik mahsulotlari	35.70	44.10
Oziq-ovqat mahsulotlari	32.10	16.10
Boshqa nometall mineral mahsulotlar	6.10	13.90
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar	2.20	8.60
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	11.60	2.70
Kimyo mahsulotlari	0.20	0.20
Metallurgiya sanoati	0.09	0.90

¹ Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

² Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Shunga qaramay, kimyo mahsulotlari, rezina-plastmassa buyumlari va metallurgiya kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarning umumiy sanoat tarkibidagi ulushi hamon 1 foizdan past darajada qolmoqda. Bu holat viloyat sanoatining asosan xomashyoga yaqin va nisbatan quyi texnologik tarmoqlarga tayanib qolayotganini, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida sezilarli zaxira mavjudligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti ko'rsatkichi bo'yicha ham tumanlar o'rtasida katta tafovut saqlanib qolmoqda: Termiz tumani va shahri, Jarqo'rg'on hamda Sherobod tumanlarida bu ko'rsatkich viloyat o'rtachasidan bir necha barobar yuqori bo'lsa, Oltinsoy, Boysun va Uzun tumanlarida u ancha past darajada qolmoqda. Bunday notekislik, avvalambor, sanoat infratuzilmasining hududlar bo'yicha tengsiz taqsimlanishi va investitsiya oqimining ma'lum markazlarga to'planishi bilan bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari Surxondaryo viloyati sanoat korxonalarini mutlaq hajmda barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini, biroq viloyatning respublika sanoatidagi ulushi nisbatan past va beqaror darajada saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Tuman kesimidagi tahlil sanoat ishlab chiqarishning hududlar o'rtasida qayta taqsimlanish jarayoni kechayotganini, an'anaviy yetakchi tumanlar ulushi pasayib, o'rtacha rivojlangan tumanlar faollashayotganini ko'rsatdi. Tarkibiy tahlil esa sanoatning to'qimachilik va qurilish materiallari kabi tarmoqlarga tobora ko'proq tayanayotganini, yuqori texnologik va qo'shilgan qiymati katta tarmoqlar ulushi esa hamon juda past ekanligini aniqladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- birinchidan, sanoat ulushi past bo'lgan tumanlarda (Oltinsoy, Boysun, Uzun) kichik sanoat zonalarini tashkil etish va investitsiya faolligini rag'batlantirish choralari kuchaytirish;
- ikkinchidan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlar (kimyo, metallurgiya, mashinasozlik) ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini shakllantirish;
- uchinchidan, to'qimachilik va qurilish materiallari kabi hozirgi yetakchi tarmoqlar bilan bir qatorda sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish;
- to'rtinchidan, viloyat sanoatining rivojlanish darajasini muntazam statistik monitoring qilish va olingan natijalarni hududiy investitsiya dasturlarini shakllantirishda qo'llash.

Mazkur xulosa va takliflar Surxondaryo viloyati sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keyingi tadqiqotlar hamda amaliy qarorlar qabul qilish jarayonida metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - 855 p.
3. Greco M., Cricelli L., Grimaldi M. A strategic management framework of tangible and intangible assets // European Management Journal. - 2013. - Vol. 31, No. 1. - P. 55-66.
4. Baker W.E., Sinkula J.M., Grinstein A., Rosenzweig S. The effect of radical innovation incongruence on new product performance // Industrial Marketing Management. - 2014. - Vol. 43, No. 8. - P. 1314-1323.
5. Gupta S., Drave V.A., Dwivedi Y.K., Baabdullah A.M., Ismagilova E. Achieving superior organizational performance via big data predictive analytics: A dynamic capability view // Industrial Marketing Management. - 2020. - Vol. 90. - P. 581-592.
6. Balassa B. Trade Liberalisation and "Revealed" Comparative Advantage // The Manchester School of Economic and Social Studies. - 1965. - Vol. 33, No. 2. - P. 99-123.
7. Vollrath T.L. A theoretical evaluation of alternative trade intensity measures of revealed comparative advantage // Weltwirtschaftliches Archiv. - 1991. - Vol. 127. - P. 265-280.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoat statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar (2014-2024 yy.). - Toshkent. <https://stat.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining asosiy ko'rsatkichlari. Statistika to'plam. -Termiz.
10. Елисеєва И.И., Юзбашев М.М. Общая теория статистики: учебник / под ред. И.И. Елисеевой. - 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 656 с.
11. Buriyev U.B. Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish sanoat raqobatbardoshligini ko'rsatkichlar statistik tadqiqoti // "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. <https://marketingjournal.uz/index.php/mj/uz/article/view/758>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**